

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


2026- yil yanvar

- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar oyidagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **80 474,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **14,8** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2025- yil yanvar oyida xizmatlar hajmi **66 160,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **11,4** %ga o'sdi.



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2026- yilning yanvar oyida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **40,2** %, ya'ni **32 321,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **17,3** %ga oshgan. Toshkent shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori hajm Samarqand (**5 930,6** mlrd so'm, ya'ni, bozor xizmatlari umumiy hajmining **7,4** %ini egalladi), Farg'ona (**5 258,4** mlrd so'm, **6,5** %), Toshkent (**5 214,9** mlrd so'm, **6,5** %) va Namangan viloyatida (**4 069,4** mlrd so'm, **5,0** %) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 027,6** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,3** %ini tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar oyi hajmi, shuningdek, 2025-2026- yillar yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar

	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi ²	80 474,8	100,0	114,8
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 491,5	3,1	114,1
Andijon viloyati	3 882,4	4,8	113,5
Buxoro viloyati	3 104,2	3,9	113,9
Jizzax viloyati	1 747,5	2,2	115,6
Qashqadaryo viloyati	3 882,3	4,8	112,8
Navoiy viloyati	1 880,9	2,3	112,7
Namangan viloyati	4 069,4	5,0	117,3
Samarqand viloyati	5 930,6	7,4	116,1
Surxondaryo viloyati	2 572,9	3,2	115,0
Sirdaryo viloyati	1 027,6	1,3	111,3
Toshkent viloyati	5 214,9	6,5	114,1
Farg'ona viloyati	5 258,4	6,5	113,6
Xorazm viloyati	2 715,2	3,4	114,1
Toshkent shahri	32 321,9	40,2	117,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2026- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Namangan (**117,3 %**), Samarqand (**116,1 %**), Jizzax (**115,6 %**), Surxondaryo (**115,0 %**), Toshkent (**114,1 %**), Xorazm (**114,1 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**114,1 %**) kuzatildi.

Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Sirdaryo viloyatida (**111,3 %**) qayd etildi.

2026- yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 123,9** ming so'mni tashkil etdi. 2025- yil yanvar oyiga (**1 779,9** ming so'm) nisbatan **12,6 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **10 275,6** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **1 960,6** ming so'mga (**14,8 %**) oshdi. Shuningdek, nisbatan yuqori hajmni Navoiy (**1 704,8** ming so'm), Toshkent (**1 663,7** ming so'm) va Buxoro (**1 483,8** ming so'm) viloyatlari egalladi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**863,9** ming so'm) qayd etildi.

² Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari**
2026- yil yanvar

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	2 123,9	112,6
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 220,5	112,7
Andijon viloyati	1 112,0	111,5
Buxoro viloyati	1 483,8	112,2
Jizzax viloyati	1 125,8	113,4
Qashqadaryo viloyati	1 055,5	110,4
Navoiy viloyati	1 704,8	110,8
Namangan viloyati	1 287,3	115,0
Samarqand viloyati	1 366,9	113,8
Surxondaryo viloyati	863,9	112,5
Sirdaryo viloyati	1 094,8	109,3
Toshkent viloyati	1 663,7	112,1
Farg'ona viloyati	1 256,8	111,4
Xorazm viloyati	1 324,0	112,0
Toshkent shahri	10 275,6	114,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

Eng yuqori o'sish sur'ati Namangan (**115,0 %**), Samarqand (**113,8 %**), Jizzax (**113,4 %**), Surxondaryo (**112,5 %**), Buxoro (**112,2 %**), Toshkent (**112,1 %**), Xorazm (**112,0 %**), viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahri (**114,8 %**) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**112,7 %**) qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **42 459,4** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **52,8 %**ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **112,7 %**ni tashkil etdi.

Hududlar orasida kichik biznesning xizmatlar hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona (**72,2 %**), Surxondaryo (**71,5 %**), Qashqadaryo (**71,3 %**), Jizzax (**70,9 %**), Namangan (**70,8 %**), Andijon (**70,7 %**), Toshkent (**70,2 %**), Xorazm (**69,6 %**), Buxoro (**68,5 %**) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (**69,5 %**) kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda bozor xizmatlari asosan kichik tadbirkorlik subyektlariga tayanadi. Shu bois u yanada moslashuvchan, biroq qonunchilikdagi o'zgarishlar va moliyalashtirish imkoniyatlariga nisbatan sezgirroq bo'ladi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlikning ulushi nisbatan past (**38,5 %**) bo'lishiga qaramay, kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakat bo'yicha eng yuqori bo'lib, **12 450,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Sirdaryo va Navoiy viloyatlari kabi qator hududlarda kichik tadbirkorlikning ulushi biroz pastroq. Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **660,5** mlrd so'mni, Navoiy viloyatida esa **1 046,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2026- yil yanvar

	Hajmi, mlrd so'mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
O'zbekiston Respublikasi	42 459,4	52,8	112,7
<i>hududlar:</i>			
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 730,5	69,5	113,1
Andijon viloyati	2 743,4	70,7	111,8
Buxoro viloyati	2 127,0	68,5	113,0
Jizzax viloyati	1 238,7	70,9	112,6
Qashqadaryo viloyati	2 766,2	71,3	113,1
Navoiy viloyati	1 046,4	55,6	110,7
Namangan viloyati	2 879,5	70,8	115,1
Samarqand viloyati	3 634,0	61,3	111,5
Surxondaryo viloyati	1 839,4	71,5	112,8
Sirdaryo viloyati	660,5	64,3	112,3
Toshkent viloyati	3 658,3	70,2	109,3
Farg'ona viloyati	3 794,0	72,2	112,7
Xorazm viloyati	1 890,7	69,6	112,8
Toshkent shahri	12 450,8	38,5	110,7

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**20,2 %**ga, umumiy o'sishga **3,6** foiz band hissa qo'shdi), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**17,3 %**ga, **2,8** f.b.), savdo xizmatlari (**16,8 %**ga, **2,7** f.b.), transport xizmatlari (**9,4 %**ga, **2,0** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**13,3 %**ga, **1,1** f.b.), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**22,8 %**ga, **0,9** f.b.), boshqa xizmatlar (**12,7 %**ga, **0,7** f.b.), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning (**10,5 %**ga, **0,3** f.b.), shaxsiy xizmatlar (**9,0 %**ga, **0,2** f.b.) hamda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning (**7,2 %**ga, **0,2** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**10,9 %**ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**10,6 %**ga) shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,8 %**ga) o'sib, **0,3** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2026- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari **19,4 %**, moliyaviy xizmatlar **18,6 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **17,2 %**, savdo xizmatlari **16,0 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **8,7 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **4,1 %** ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari
yanvar

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2025- yil	2026- yil	
Xizmatlar – jami	66 160,9	80 474,8	114,8
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 559,3	7 025,8	113,3
moliyaviy xizmatlar	11 880,6	14 935,8	120,2
transport xizmatlari	13 827,2	15 633,3	109,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	6 638,9	7 965,1	108,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	10 868,6	13 819,2	117,3
savdo xizmatlari	10 502,3	12 863,6	116,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 751,4	1 969,0	110,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 573,2	3 259,5	122,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 458,4	1 676,4	107,2
ijara xizmatlari	908,2	1 079,8	110,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 020,2	1 185,4	110,6
shaxsiy xizmatlar	1 431,9	1 712,2	109,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	806,0	913,9	105,8
boshqa xizmatlar	3 573,6	4 400,9	112,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **2 950,6** mlrd so'mga oshib, **13 819,2** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,7 %** darajasida qayd etildi.

2026- yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **15 633,3** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari **50,9 %**, yoki **7 965,1** mlrd so'm hajm bilan ustunlik qiladi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi ichki va tashqi savdo faoliyati, logistika, turizm hamda elektron tijoratning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi
2026- yil yanvar



2025- yil yanvar oyiga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **2 361,3** mlrd so'mga oshib, **12 863,6** mlrd so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **51,8 %**ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **29,9 %**ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **18,3 %**ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar oyiga nisbatan 2026- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **3 055,2** mlrd so'mga oshib, **14 935,8** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2025- yil yanvar oyi bilan solishtirganda **20,2 %**ga o'sdi.

2026- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,4 %**ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,1 %** darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,5 %**ni tashkil etdi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **7 025,8** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari (**42,9 %**) egalladi. Shuningdek, ko'rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborot xizmatlari umumiy hajmining telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **33,7 %**, axborot xizmatlari **14,6 %**, noshirlik xizmatlari **6,5 %** va boshqa xizmatlar **2,3 %**ni tashkil etgani ta'kidlandi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
yanvar, mlrd so'mda



Bu sohada dasturlashtirishning yuqori ulushi yangi AT-klaster paydo bo'layotganini ko'rsatadi. U qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi va eksport imkoniyatlarini oshiradi, ayniqsa autsorsing va dasturiy ta'minot ishlab chiqishga hissa qo'shadi.

2026- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **3 259,5** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **46,8** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**1 969,0** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **95,8** % darajasida qayd etildi.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **1 676,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **52,0** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **30,5** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa **17,5** %.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)

